

**KOMPITENNTLI YONDASHUVGA KO'RA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
 TASHKILOTI TARBIYACHILARINING ASOSIY AXBOROT-KOMMUNIKATSION
 KOMPITENSIYASI**

Begmuratova Dilnoza Amaliddinovna

GulDU tayanch doktaranti

E-mail begmuratovadilnoza@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11478026>

Annotatsiya. Bo'lajak tarbiyachilarining axborot bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish, bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, pedagog oldida turgan muhim vazifalardan biri, bu bitiruvchilarni zamonaviy axborot muhitida erkin harakatlana olishga tayyorlashdan iborat. Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining asosiy axborot-kommunikatsion kompetentsiyasi keltiri o'tilgan.

Kalit so'zlar: Axborot, axborot madaniyati, axborot-kommunikatsion kompetentlik, texnologik kompetentsiya, kommunikatsion kompetentsiya

**BASIC INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE OF TEACHERS
 OF THE FUTURE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION ACCORDING
 TO THE COMPETENT APPROACH**

Abstract. Developing the competence of working with information of future educators is one of the urgent tasks today. Because one of the important tasks facing the pedagogue is to prepare graduates to move freely in the modern information environment. In this article, the main information and communication competence of educators of the future preschool education organization is presented.

Key words: Information, information culture, information and communication competence, technological competence, communication competence.

**БАЗОВАЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ
 ПЕДАГОГОВ БУДУЩЕЙ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ
 ОРГАНИЗАЦИИ СОГЛАСНО КОМПЕТЕНТНОСТНОМУ ПОДХОДУ**

Аннотация. Развитие компетенции работы с информацией у будущих педагогов является одной из актуальных задач сегодня. Потому что одна из важных задач, стоящих перед педагогом, – подготовить выпускников к свободному перемещению в современной информационной среде. В данной статье представлены основные информационно-коммуникативные компетенции воспитателей будущей организации дошкольного образования.

Ключевые слова: Информация, информационная культура, информационно-коммуникативная компетентность, технологическая компетентность, коммуникативная компетентность.

Bugungi jamiyatdagi global muammolar (ekologik, ijtimoiy, axborot, resurslar) sharoitida, ta’lim, turli jabhalardagi tayanch bilimga ega bo‘lgan talabalarni kompleks tayyorlashga yo‘naltirilmog‘i lozim. Ushbu masalani echimi sifatida ta’lim tizimini axborotlashtirish to‘g‘risida ko‘plab mutaxassislar bildirgan o‘ziga xos g‘oyalarni keltirish mumkin. “Maktabgacha ta’lim muassasasi faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni olib kirish, keljakda ta’lim-tarbiya jarayonining sifat samaradorligini oshirishni ta’minalash imkonini berishi” [2] ko‘p bora takrorlanib, o‘z isbotini topmoqda.

Bugungi kunda kadrlar tayyorlashda, bugungi va keljakdagi mutaxassislarning yangi kasbiy kompetentsiyalarga bo‘lgan talablarini e’tiborga olish lozim. Shuning uchun ham bugungi kunda, “axborot madaniyati” termini o‘rniga ko‘pincha “axborot-kommunikatsion kompetentlik” terminidan foydalanilmoqda. Bu esa jamiyatni axborotlashtirish jarayoni, uni a’zolarining axborot-kommunikativ texnologiyalar kompetentsiyasidan qay darajada xabardor ekanligiga borib taqaladi.

Kompetentli yondashuv asosida, mavjud bilimlardan tajriba almashishga, qobiliyati va shaxsiy sifatlarini shakllantirishga, ya’ni kompetentsiyaga o‘tish zarurligi to‘g‘risidagi g‘oya yotadi.

Kompetentli yondashuvga ko‘ra, zamonaviy mutaxassisni asosiy axborot-kommunikatsion kompetentsiyasi quyidagilardan iborat:

- axborot-analitik faoliyat sohasidagi kompetentsiya: inson va jamiyat kundalik hayotida axborotning ahamiyatini tushinish; asosiy axborotlar oqimini, ularni zamonaviy dunyo xaritasini shakllanishiga ta’sirini bilishi; o‘zining faoliyatida axborot jarayonlari oqimi qonuniyatlarini nazarda tutishi; axborotni tarkibi, amaliy va shaxsiy ahamiyati jihatidan tahlil qilish va baxolash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

- o‘rganish, bilish faoliyati sohasidagi kompetentsiya: turli tabiatga ega bo‘lgan tadqiqotlarni olib borishda, axborot yondashuvining o‘rnini tushinishi; axborot tahlilini asosiy bosqichlarini bilishi; tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, sintez, axborotni shaklga keltirish, va boshqa shu kabi axborot tahlilini asosiy bosqichlarini bilishi; Fikrlashining analistik, mantiqiy-kombinatorli va algoritimli usullarini ma’lum bosqichlarini shakllanganligi; g‘oyalarni boshqarish va uni amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan vositalarni bilishi.

- kommunikativ faoliyat doirasidagi kompetentsiya: turli tillarga (tabiiy, formal, formallahgan) kommunikatsiyalar vositasi sifatida qarashi; formal tillardan foydalanishni o‘ziga xos tomonlarini tushunishi; zamonaviy kommunikatsiya vositalari va aloqa kanallarining muhim xarakterlaridan xabardor bo‘lishi; asosiy telekommunikatsiya vositalaridan foydalana olishi; muloqotni etik normalari va huquqiy axborotni asosiy xolatlarini bilishi lozim.

- texnologik kompetentsiya: faoliyatni tashkil qilishda texnologik yondashuvning muhim ekanligini tushunishi; axborot faoliyatida, avtomatlashtirilgan texnologiyalarning o‘ziga xos jihatlarini bilishi; turli xil axborot texnologiyalari asosini tashkil etuvchi yagona operatsiyalarni bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

- texnikashunoslik (texnik kompetentlik) sohasidagi kompetentsiya: axborotni avtomat ravishda qayta ishlash uchun belgilangan texnik qurilmalarni ishlash printsplari, qulaylik va chekllovlarini tushunishi; axborot jarayonlarini avtomat va avtomatlashtirilgan holda bajarish farqlarini bilishi; asosiy xarakteridan qat’iy nazar, masalalar mohiyatini echishi mumkin bo‘lgan konkret texnik vositalardan foydalanishni bilishi.

- ijtimoiy faoliyat va avlodlar vorisligi sohasidagi kompetentsiya: jamiyat axborot resurslarini saqlash va ko‘paytirishga g‘amxo‘rlik qilishning zarurligi haqida bilishi; tarqatilayotgan axborotni haqqoniyligi uchun shaxsiy javobgarlikni xis qilishi; shaxsni axborot xavfsizligi masalalari borasida, boshqalar huquqini xurmat qilishi va o‘zining huquqini talab qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

- kommunikatsion kompetentsiya: tarmoqlardagi axborotlarni to‘plash va uzatish; kasbiy faoliyatida tarmoq elektron resurslardan foydalana olish ko‘nikmasiga ega ekanligi.

Bugungi kunda yoshlar qo‘l telefonini orqali axborotlarni uzatishga qiziqishlari ortib borayotganligi olimlarimizning izlanishlarida ham o‘z isbotini topmoqda [1]. Shuningdek bolalarning bevosita ta’lim olishlaridagi faoliyati, interaktiv kompyuter dasturlari va audiovizual vositalar yordamida pedagog bilan muloqot qilish xarakteriga ega bo‘ladi. AKTdan foydalanish, ta’limni individuallashuvi va differentsiatsiyalashuviga, bilimlarni integratsiyasiga, motivatsiya darajasi va bilish faolligini oshishiga, elektron resurslardan foydalangan holda, diagnostika va refleksiyanı o‘tkazishga yordam beradi [3;10 b].

Maktabgacha ta’limni mamlakatning yagona axborot-ta’lim makoniga kiritish va rivojlantirish muommosini yechimlaridan biri bo‘lib, aholini maktabgacha ta’limga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qoplash, har bir bolani individual imkoniyatlarini (AKT asosida ta’limni individualallashtirish) ochib berishga qaratilgan maktabgacha ta’lim dasturlarini amalga oshirishda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish tashkil etadi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari

deganda, tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar o‘rtasidagi, axborot-telekommunikatsion tarmoqlar orqali amalga oshiriluvchi texnologiyalar tushuniladi.

REFERENCES

1. Қодирова Ф.У. “Рақамли педагогика” – истиқбол бугундан бошланади: имкониятлар, стереотиплар, келгуси режалар. Замонавий таълим/Современное образование. 2020. 8 (93).
2. Рахимова С.С. Ўзбекистонда мактабгача таълим муассасалари фаолиятини ислоҳ қилишнинг ҳукукий-меъёрий асослари. Мактабгача таълим/Дошкольное образование. 2018. 2.
3. Леонтьев, А.А. Интерактив в ДОУ [Текст] / А. А. Леонтьев // Обруч. – 2014. – №4. – С.10.